

Qizildara petrogliflari. U nimalarni so'zlaydi?

Bugungacha Markaziy Osiyo mintaqasida 1300 dan ziyod qoyatosh suratlarining manzili aniqlangan va hisobga olingan. Ulardan 250 ga yaqini O'zbekiston hududida joylashgan.

Qizildara darasi Tyan-Shan tog' tizmasining g'arbiy etaklarida, Angren shahridan 15 km shimoli-sharqda joylashgan. U Katta Soy paleolit manzilidan sharqqa tomon ko'tarilib, taxminan 9 km yurgandan so'ng g'arbdagi Ertosh soyga olib boruvchi dovonda tugaydi. Dara 1600 dan boshlanib, dengiz sathidan 3400 metr balandlikka ko'tariladi va dovonga to'qnash keladi. O'rganilayotgan hudud ma'muriy jihatdan Toshkent viloyati, Ohangaron tumaniga tegishli bo'lib, so'nggi yillarda tadqiqotlar bu hududda O'zR FA Milliy arxeologiya markazining ilmiy xodimlari tomonidan olib borilmoqda.

2021-yilgi mavsumdagi dala ishlari davrida jami 395 ta panel hujjatlashtirildi. Hujjatlashtirish ishlari elektron taxeometr stantsiyasi hamda qo'l GPSdan foydalanilgan holda olib borildi. Ish jarayonida 50 ta panelning 3D modellarini yaratishga qaror qilindi.

Hozirda olingan natijalarni qayta ishslash va sharhslash davom etmoqda. Shunga qaramay, dala inventariga asoslanib, hujjatlashtirilgan petrogliflar soni 2000 dan ortiq deb baholandi. Hujjatlashtirilgan panellarning ba'zilarida faqat bitta tasvir, ba'zilarida bir necha o'nlab, hatto bir holatda 200 dan ortiq tasvirlar mavjudligi aniqlandi.





Qayd etilgan tasvirlar orasida eng keng tarqalgani Sibir echkisi (*Capra sibirica*) hisoblanadi. Shu bilan birga, asar davomida boshqa shoxli hayvonlar, jumladan, kiyiklarning tasvirlari, baqtriyaliklar tasvirlangan petrogliflar, odam qo'l izlari, g'ildirakli vositalar va boshqa tasvirlar qayd etilgan. Rasmlarga qarab o'sha davrlarga oid madaniyat va landshaftiga bog'liq manzaralar aks ettirilgan, degan xulosa berish mumkin.

Chotqol tog' tizmasida aniqlangan yangi qoyatosh rasmlari tadqiqoti asosida insoniyat tarixiy taraqqiyotining bronza, ilk temir, antik, o'rta asrlar davrida ushbu hududda yashagan ovchi va ko'chmanchi dasht chorvador xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, diniy va xo'jalik hayotini o'rganish hamda Vatanimiz tarixi va madaniyatida tutgan o'rni masalalarini o'rganishdan iborat.

Qizildarada hujjatlashtirilgan petrogliflarning yoshi bronza va temir davri ekanligi oldindan aniqlangan. Biroq, tasvirlar orasida albatta zamonaviy tasvirlarni ham kuzatish mumkin.

Qizildara qoyatosh suratlari dengiz satxidan 1600 - 3100 metr balandlik oralig'ida uchraydi. Bu qadimdan insoniyat tomonidan baland tog'lik hudud landshaftlari keng o'zlashtirilganligidan dalolat beradi.

Qizildara darasi o'zining noyobligi shu paytgacha bu hududda noma'lum bo'lgan ko'plab juda boy petrogliflar to'plami bilan o'ziga xos hisoblanadi. 2021-yilda qo'llanilgan usullar nisbatan qisqa vaqt ichida katta maydonni o'rganish va barcha topilgan tasvirlarni hujjatlashtirish imkonini berdi. Barcha petrogliflarning hujjatlashtirishi ularni fasllar oralig'ida raqamli grafik usullaridan foydalangan holda qayta ishlash va keljakda hujjatlarning qaysi qismlarini to'ldirilishi kerakligini to'g'ri baholashga imkon beradi.

Iqlim ta'sirida qoyatosh rasmlar nurab, o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Keljak avlodga to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida yuqoridaq ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.